

Davriy nashrlarga obuna qilish va yetkazib berish bo'yicha
Shartnoma 25.

2022 yil 12 yanvar

Asaka sh.

"O'zbekiston pochta" AJ nomidan Andijon filiali Asaka TPAB Nizomi asosida ish yurituvchi boshlig'i G. Ismoilova matnda "Yetkazib beruvchi" deb nomlanuvchi bir tomondan Xalq deputatlarining Asaka tuman kengashi katiibiyoti nomidan Hizom asosida ish yurituvchi Solihsoqov M matnda "Obunachi" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning talabiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda chop etiladigan, "Yetkazib beruvchi"ning obuna katalogiga kiritilgan davriy nashrlarga (bundan buyon tovar) obuna rasmiylashtirish va yetkazib berish majburiyatini oladi. "Obunachi" bo'lsa tovarni qabul qilish va ushbu shartnoma shartlariga nazarda tutilgan shartlar va tartibda tovar hamda yetkazib berish xizmati uchun to'lash majburiyatini oladi.

Ushbu shartnoma doirasida tovar deganda davriy bosma nashrlar - gazeta, jurnal yoki doimiy nom(nom), joriy raqamga ega bo'lgan va yiliga kamida bir marta chop etiladigan boshqa nashr tushuniladi.

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar o'lovchov birligi sifatida kalendar oy ichida chiqadigan bir davriy nashrning tovarlar partiyasi tushuniladi.

1.3. Tovar va xizmatlarning aniq nomi, narxi va boshqa parametrlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilovadagi buyurtmanomaga asosan belgilanadi. Tovarlar partiyasining narxi ushbu shartnomaning butun muddati uchun belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.

1.4. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish muddati 12 01 2022 yildan 31.12.2022 yilgacha.

1.5. "Yetkazib beruvchi" davriy nashr chop etilgan kundan boshlab tovarni "Obunachi"ga qisqa vaqt ichida yetkazib berish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

1.6. Shartnoma bo'yicha xisobot davri 1 (bir) kalendar oy.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Yetkazib beruvchi"ning majburiyatlari:

2.1.1. Tovar "Obunachi"ga shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda yetkazib beradi.

2.1.2. "Obunachi"ga hisobot davrida yetkazib berilgan tovar partiyalari va yetkazib berish xizmati uchun o'rnatilgan tartibda schyot-faktura taqdim qiliadi.

2.1.3. Tovarlarini nashriyot tomonidan belgilangan chiqish davriyligiga muvofiq yetkazib berish. Tovarlarini yetkazib berish "Yetkazib beruvchi" tomonidan ish kunlari amalga oshiriladi.

2.1.4. "Obunachi"dan tovarni topshirish qabul qilishda miqdori va sifati bo'yicha farq haqida dalolatnoma taqdim qilinganda, "Yetkazib beruvchi" qonun hujjatlarida belgilangan muddatda "Obunachi"ning huquqiy talablarini bajaradi.

2.1.5. Hisobot oyi davomida qonun hujjatlariga talablariga muvofiq tovarlarni o'rnatilgan tartibda yetkazib berilishi bilan bog'liq "Obunachi"ning talablarini bajaradi.

2.1.6. "Obunachi" tomondan nuqsonli yoki yaroqsiz tovarni almashtirib berish talab qilinganda, so'rov taqdim etilgan kundan boshlab yigirma kun ichida almashtiriladi.

2.2. "Yetkazib beruvchi"ning huquqlari:

2.2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini sifatli bajarish uchun shartnoma bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va boshqa ma'lumotlarni obunachidan og'zaki yoki yozma ko'rinishda olish.

2.3. "Obunachi"ning majburiyatlari:

2.3.1. Yetkazib berilgan tovarni qabul qilish yoki qabul qilishdan bosh tortishi sabablarini 2 kun ichida asoslash.

2.3.2. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq tovar va yetkazib berish xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish.

2.3.3. Agar tovar "Obunachi"ning pochta qutisiga yetkazib berilishi lozim bo'lsa "Yetkazib beruvchi"ga "Obunachi" pochta qutisining raqami va joylashgan joyini ma'lum qilish.

2.4. "Obunachi"ning xuquqlari:

2.4.1. Tovarlarini olgandan so'ng, nuqsonlar aniqlanganda o'zining hohishiga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- buyurtmaning narxini nuqsonli tovar narxiga mutanosib ravishda kamaytirish;

- xuddi shunday, lekin nuqsonsiz tovar bilan almashtirish;

- nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olish;

2.4.3. Ushbu talablar "Obunachi"ning tegishli talabnomasi berilgan kundan boshlab 20 kundan kechiktirmay bajariladi.

2.4.4. Tovarlar yetkazib berilmagan taqdirda, obunachi quyidagilardan birini tanlash huquqiga ega:

a) yangi yetkazib berish sanasini belgilash;

b) nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olishni talab qilish.

Bu talablar "Obunachi"ning tegishli talabnomasi berilgan kundan boshlab 20 kundan kechiktirmay bajariladi.

3. SHARTNOMA NARXI, HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiy summasi buyurtmanomaga muvofiq 1766390 (bir million etti yuz oltmish olti ming uch yuz toqson) so'm so'm. (QQS bilan).

3.2. Tovar narxi va yetkazib berish xizmati "Yetkazib beruvchi" tomonidan belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi hamda ushbu shartnomaning amal qilish davrida o'zgartirilmaydi.

3.3. "Obunachi", "Yetkazib beruvchi"ga to'lovlarni quyidagi tartibda amalga oshiradi:

- ushbu shartnomaning 100% miqdoridagi avans to'lovi ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida "Yetkazib beruvchi"ning bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.4. "Obunachi" va "Yetkazib beruvchi" o'rtasidagi barcha to'lovlar bank hisob raqamga pul o'tkazish yoki bank plastik kartasi orqali O'zbekiston Respublikasi "so'm"ida amalga oshiriladi.

3.5. Hisob varaq-fakturalar "Yetkazib beruvchi" tomonidan "Obunachi"ga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etiladi.

3.6. Tomonlar shartnomaning oxirgi kunida ikki tomon uchun majburiy bo'lgan o'zaro solishtirma dalolatnoma tuzishlari to'g'risida kelishib oladilar.

3.7. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan hisob-kitob tartibi yetkazib beruvchiga tijorat krediti berish yoki yetkazib beruvchidan qonun yoki boshqa foizlarni olish uchun asos bo'lmaydi.

4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBI

- 4.1. Tovar yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan, xududiy (tarkibiy) korxonalari (bo'linmalari) ro'yxati ilovasiga asosan quyidagi manzillardan biri bo'yicha yetkazib beriladi:
- Obunachi tomonidan belgilangan pochta qutisiga:
- _____ manzilga, agar ushbu manzilda obunachi tomonidan qabul qilib oluvchi mavjud bo'lmasa, tovarlar ushbu ko'rsatilgan manzildagi binoda joylashgan pochta qutisida yoki kirish eshigi oldida qoldiriladi.
- Obunachi o'zi olib ketish sharti bilan _____ manzilga xizmat ko'rsatuvchi aloqa bo'limiga.
- 4.2. Tovarni yetkazib berish usuli "Obunachi" tomonidan shartnoma tuzilgan vaqtda belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.
- 4.3. Tovarni yetkazib berish "Yetkazib beruvchi" tomonidan yoki "Yetkazib beruvchi" nomidan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Tanlangan yetkazib berish usuli bo'yicha yetkazib berish xarajatlari tovar bahosiga kiritiladi.
- 4.4. "Yetkazib beruvchi" tovarni nashriyotdan yoki tovar chiqaradigan boshqa shaxsdan olingan paytdan boshlab davriy nashrlarning chop etilish chastotasini hisobga olgan holda "Obunachi"ga yetkazib beradi.
- 4.5. Hisobot oyi oxirida "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ga kalendar oyi davomida yetkazib berilgan tovar partiyasi uchun schet-faktura yuboradi.
- 4.6. "Yetkazib beruvchi" belgilangan hujjatlarni "Obunachi"ga hisobot oyidan keyingi oying 15-kunidan kechiktirmasdan taqdim etadi.
- 4.7. Ikki ish kuni ichida "Obunachi", "Yetkazib beruvchi" tomonidan yuritilgan hujjatlarini ko'rib chiqadi va yetkazib berilgan tovarlar miqdori bo'yicha e'tiroz bo'lmasa, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiradi va "Yetkazib beruvchi"ga qaytaradi, yetkazib berilgan tovarning miqdori yoki sifatiga e'tiroz bo'lsa, "Obunachi" hujjatlarga imzo chekishdan bosh tortishga va aniqlangan nomutanosibliklar to'g'risida dalolatnoma tuzishga haqli. Agar "Obunachi"dan belgilangan muddatda asosli e'tirozlar olinmasa, hisobot oyi uchun mahsulot "Obunachi" tomonidan izohsiz qabul qilingan deb hisoblanadi.
- 4.8. Agar obunachi belgilangan muddatda "Yetkazib beruvchi"ga yozma talabnoma taqdim qilmagan bo'lsa, "Yetkazib beruvchi" tomonidan taqdim qilingan hujjatlarni imzolashdan bosh tortishga xaqli emas.
- 4.9. Tasodifiy yo'qotish yoki mahsulotga zarar yetkazish xavfining "Obunachi"ga o'tkazilishi tovarni yetkazib berish usuli bo'yicha "Obunachi"ga yetkazib berish vaqtida sodir bo'ladi. Tovarga bo'lgan egalik huquqini "Obunachi"ga o'tkazilishi schet faktura imzolangan paytdan boshlab sodir bo'ladi.

5. MAHSULOT SIFATI VA QADOQLASH

- 5.1. Mahsulot yetkazib beriladigan qadoqlash mahsuloti ishlab chiqaruvchi nashriyot tomonidan belgilanadi va amalga oshiriladi.
- 5.2. Tomonlar "Obunachi"ga topshirilgan tovardan maqsadga muvofiq foydalana olmaslikka olib kelgan yaqqol nuqsonlarga ega bo'lgan hollarni tovarlarni qadoqlash shartlari buzilishi deb hisoblashga kelishib oladilar.

6. MAHFIVLIK

- 6.1. Taraflar bitimni bajarish chog'ida muayyan axborotning maxfiy xususiyatini boshqa tomonga majburiy xabardor qilgan holda bir tomonlama aniqlashga haqli.
- 6.2. Taraflar boshqa tarafning oldindan yozma roziligisiz boshqa tarafning kelishuviga binoan olingan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, uchinchi shaxslarga o'tkazishi yoki o'z maqsadlari uchun foydalanishi mumkin emas.
- 6.3. Maxfiy deb tasniflangan vaqtda u allaqachon uchinchi shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilgan yoki ochiqdigan taqdirda, tomonlar javobgar bo'lmaydi.
- 6.4. Ushbu bo'limda belgilangan shartlar shartnoma muddati davomida ham, kelishuv bekor qilingan kundan boshlab 3 (uch) yil mobaynida ham tomonlar uchun har qanday sababga ko'ra majburiydir.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu shartnomaga muvofiq javobgardirlar.
- 7.2. "Yetkazib beruvchi" davriy nashrlarni chiqishi to'xtatilishi yoki vaqtincha to'xtatib turilishi, kechikishi, shuningdek taxririya tomonidan bir tomonlama davriy nashrlarning chiqish davriyligi o'zgarganligi, belgilangan muddatda chiqarilmasligi va soni yoki sifat tasniflari o'zgartirilganligi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish imkonsiz hollarda javobgar emas.
- 7.3. "Yetkazib beruvchi" tovarning mazmuni, shakli yoki boshqa mazmuni uchun obunachi oldida javobgar emas.
- 7.4. Tovar parametrlari (shakl, mazmun, davriy nashrlarning chiqish davriyligi yoki mahsulot chiqarishni kechiktirish) o'zgarganda, "Obunachi" bevosita taxririya tomonidan yoki davriy nashrlarni chiqarayotgan shaxsga da'vo qilish huquqiga ega.
- 7.5. "Yetkazib beruvchi" ushbu shartnomaning 3.3-bandiga muvofiq "Obunachi"ning tovar uchun haq to'lash majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan bunday huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda tovar yetkazib berish shartlarini buzganligi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.6. "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning davriy nashrlari olinmaganligi yoki to'liq olmaganligi uchun javobgardir va 20 kun ichida "Obunachi" tomonidan qabul qilinmagan mahsulotni yetkazib berish bo'yicha "Obunachi"ning huquqiy talablarini bartaraf etadi.
- 7.7. Ushbu shartnomaning 7.6-bandiga muvofiq "Yetkazib beruvchi"ning tovar yetkazib berish talablarini buzganligi bilan bog'liq da'volari "Obunachi" tomonidan tovar yetkazib berilgan 20 kun ichida taqdim etilishi kerak. Bunday da'volar bo'lmagan taqdirda, "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning hisobot davrida tovar yetkazib berish tartibini buzish bilan bog'liq da'volarini qabul qilmaydi va javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 7.8. To'lov shartlari, shu jumladan, avans to'lovini ushbu shartnoma doirasida amalga oshirmaganlik uchun "Obunachi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
- 7.9. Agar tomonlardan biri ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi ikkinchi tomonning aybi tufayli sodir etilganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod etiladi.
- 7.10. "Obunachi" tomonidan nashrlarni yetkazib berish manzillari, telefon raqami noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, yetkazib berilmagan nashrlar uchun "Yetkazib beruvchi" javobgar bo'lmaydi. "Obunachi"ning manzili o'zgargan taqdirda "Yetkazib beruvchi"ga yozma ravishda xabar berishi shart.

8. FORS-MAJOR

8.1. Tomonlar o'z ixtiyorlarida bo'lmagan fors-major holati, ya'ni zilzila, suv toshqini, yong'in, tabiiy ofatlar, epidemiya, harbiy harakatlar, hukumatning ayrim faoliyat turini ta'qiqlovchi qarorlari sababli shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunda, o'ziga nisbatan fors-major holati yuzaga kelgan tomon ikkinchi tomonni 24 soat ichida yozma ravishda ogohlantirishi lozim. Shartnomani bajarish muddati, tomonlar kelishuviga ko'ra fors-major holati muddatiga uzaytirilishi yoki shartnoma bekor qilinishi mumkin.

9. SHARTNOMA MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

- 9.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha va hisob-kitoblar jihatidan, ularning to'liq amalga oshirilgunga qadar amal qiladi. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarning shartnoma bo'yicha bekor qilingunga qadar yuzaga kelgan majburiyatlari bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.
- 9.2. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda amalga oshirilib, har ikki tomon tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Tomonlarning tegishli qo'shimcha kelishuvlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 9.3. Tomonlar shartnomani (shartnomani bajarish) butunlay bir tomonlama bekor qilish huquqiga egadirlar.
- 9.4. Shartnomani bir tomonlama bekor qilish, bir tomon ikkinchi tomonga yozma xabarnoma yuborishi yo'li bilan amalga oshirilishi lozim. Agar xabarnomada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, shartnoma ushbu xabarnoma olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan keyin bekor qilinadi.
- 9.5. Taraflar shartnomadan qisman bir tomonlama voz kechishga (shartnomani bajarishga) haqli yemas.
- 9.6. Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda kiritilib, taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Bu holda taraflarning vakolatli vakillari tegishli tarafning Ustavi (boshqa ta'sis hujjati) asosida harakat qiluvchi shaxslar, shuningdek o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.
- 9.7. Tomonlar kelishuvni imzolaganidan so'ng, u bo'yicha barcha dastlabki muzokaralar, yozishmalar va dastlabki kelishuvlar yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 10.1. Shartnoma bandlarini bajarish yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar ularni muzokara yo'li bilan hal etishni zimmlariga oladilar. Shunda umumiy yechimga kelishishning imkoniyati bo'lmasa, masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida shaxar va tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

11. BOSHQA QOIDA VA SHARTLAR

- 11.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada, taraflarning har biri uchun bittadan oddiy yozma shaklda tuziladi.
- 11.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqariladi va sharhlanadi. Shartnomada ko'rsatilmagan munosabatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi.
- 11.3. Agar tomonlardan biri pochta, aloqa yoki to'lov rekvizitlarini o'zgartirsa yoki qayta tashkil etish yo tugatilishi lozim bo'lsa, boshqa tomonni ushbu o'zgarishlar kuchga kirgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart (qayta tashkil etish yoki tugatish holatida tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida). Taraflardan birining ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatning boshqa taraf tomonidan bajarilmasligi bilan bog'liq zararlari aybdor shaxs tomonidan qoplanadi.

12. TOMONLARNING REKVIZITLARI

"YETKAZIB BERUVCHI"

"O'zbekiston pochta" AJ
Andijon filiali
Asaka TIIAB
Manzil: Sohil boyi ko'chasi, 6 uy

H/r: 2261 2000 3001 5526 6009
AT "Aloqabank" ning Amaliyot boshqarmasi
MFO: 00401; INN: 200 833 833
OKED: 53100

Telefonlar:
Obuna bo'limi: +99893-444-12-10
Buxgalteriya: +99897-163-31-30

E-mail:
Veb-sayt: www.pochta.uz

Boshligi



"OBUNACHI"

Xalo deputatligi, Asaka t-n
Kengashi Kotibxona
Manzil: Asaka t-n Sohil boyi
ko'chasi, 2-uy

H/r: 1002286503224
211903340002

MFO: 20014
INN: 207334910
OKED:

Telefonlar: +998-93-780-85-00



Asaka t-n
Kengashi